

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLIK HUQUQI VA  
BURCHLARINING HIMOYA QILINISHI HAMDA TARTIBGA SOLINISHI**

**ЗАЩИТА И РЕГУЛИРОВАНИЕ ГРАЖДАНСКИХ ПРАВ И  
ОБЯЗАННОСТЕЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

**PROTECTION AND REGULATION OF CIVIL RIGHTS AND DUTIES  
IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

*Norimonova Gulmira Ulug‘bek qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va  
huquq ta‘limi 2-bosqich talabasi*

*Isroilov Davronbek*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Ijtimoiy gumanitar fanlar o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonning huquqiy tizimida fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, burchlarini bajarish va bu jarayonlarni tartibga solishda davlatning muhim roli haqida yoritib berilgan. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqlari va burchlarining himoya qilinishi hamda tartibga solinishi davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligi to‘g‘risida so‘z boradi. Fuqarolik huquqi, har bir shaxsning qonon oldidagi tengligi, shaxsiy va mulk huquqlarining himoyasi, erkinlik va adolat prinsiplariga asoslanadi. Ushbu huquqlarni ta‘minlashda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, Fuqarolik kodeksi va boshqalar. Hozirgi kunga kelib, fuqarolik burchlari va ma’sulyatlari tizimi ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekistonda fuqarolik huquqi va burchlarini tartibga solish, nafaqat ichki qonunlar orqali, balki xalqaro konvensiyalar va inson huquqlari prinsiplariga ham asoslanishini ta’kidlashimiz lozimligi xususida so‘z boradi.

**Аннотация:** В данной статье описывается важная роль государства в защите прав граждан, исполнении ими обязанностей и регулировании этих процессов в правовой системе Узбекистана. Среди прочего говорится, что защита и регулирование гражданских прав и обязанностей в Республике Узбекистан является одной из приоритетных задач государства. Гражданское право основано на принципах равенства каждого человека перед законом, защиты личных и имущественных прав, свободы и справедливости. Для обеспечения этих прав используются Конституция, законы и другие нормативные правовые документы Республики Узбекистан, Гражданский кодекс

и др. На сегодняшний день большое значение имеет также система гражданских обязанностей и ответственности. Также отмечается, что регулирование гражданских прав и обязанностей в Узбекистане основано не только на внутренних законах, но и на международных конвенциях и принципах прав человека.

**Abstract:** This article describes the important role of the state in protecting the rights of citizens, fulfilling their duties and regulating these processes in the legal system of Uzbekistan. Among other things, it is said that the protection and regulation of civil rights and duties in the Republic of Uzbekistan is one of the priority tasks of the state. Civil law is based on the principles of equality of every person before the law, protection of personal and property rights, freedom and justice. The Constitution, laws and other normative legal documents of the Republic of Uzbekistan, the Civil Code, etc., are used to ensure these rights. To date, the system of civil duties and responsibilities is also of great importance. It is also mentioned that the regulation of civil rights and duties in Uzbekistan is based not only on internal laws, but also on international conventions and human rights principles.

**Kalit so'zlar:** fuqarolik, burch, huquq, Konstitutsiya, kodeks, qonun, shaxs, fuqarolik obyekt, fuqarolik subyekt.

**Ключевые слова:** гражданство, обязанность, право, Конституция, кодекс, закон, личность, гражданский объект, гражданский субъект.

**Key words:** citizenship, duty, right, Constitution, code, law, person, civil object, civil subject.

**Kirish:** Hozirgi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish muhim ahamiyatga ega hisoblayman. Fuqarolik huquqining mohiyati, u tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar mazmunida yaqqol ko'rinadi.

Fuqarolik huquqi-yuridik jihatdan teng bo'lgan subyektlar o'rtasidagi mulkiy, shaxsiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig'indisi hisoblanadi. Fuqarolik huquqi manbalari-fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan, huquqiy harakterdagi normativ-huquqiy hujjatlar yoki nohuquqiy turdagi ijtimoiy normalar tizimi sifatida ko'rishimiz mumkin. Fuqarolik huquqlari qononda nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ham himoya qilinishi mumkin. Fuqarolar va yuridik shaxslar o'zlariga tegishli bo'lgan fuqarolik huquqlarini, shu bilan birga ularni himoya qilish huquqini ham o'z xohishlariga ko'ra tasarruf etishlari mumkin. Qonunda nazarda tutilgan paytlardagina fuqarolik huquqlari ma'muriy tartibda himoya qilinadi. Ma'muriy tartibda qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Ikkinchi bo'limida fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari

quyidagicha: 1)Shaxsiy huquq va erkinliklar; 2)Siyosiy huquqlar; 3)Iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar.

**Asosiy qism:** O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 8-moddasiga ko‘ra, fuqarolik huquq va burchlari quyidagilardan vujudga keladi:

1) Qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan, shuningdek, garchi qonunda nazarda tutilgan bo‘lmasa-da, lekin unga zid bo‘lmagan shartnomalar va boshqa bitimlardan;

2) Qonunda fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asosi sifatida nazarda tutilgan davlat organlarining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hujjatlaridan;

3) Sudning fuqarolik huquq va burchlarini belgilagan qaroridan;

4) Qonun yo‘l qo‘yadigan asoslarda mol-mulk olish natijasida;

5) Fan, asdabiyot, san‘at asarlarini yaratish, ixtirolar va boshqa intellektual faoliyat natijasida;

6) Boshqa shaxsga zarar yetkazish natijasida;

7) Asossiz boyib ketish natijasida;

8) Fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa harakatlari natijasida;

9) Qonunchilik fuqarolik-huquqiy oqibatlarining kelib chiqishi bilan bog‘laydigan hodisalar natijasida.

O‘zi aslida, inson huquq va erkinliklari har bir shaxsga tug‘ilganidan boshlab beriladi. O‘zbekiston Respublikasidagi barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millat, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar qonun oldida tengdirlar. Shu jumladan, har bir fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etish va ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas. Konstitutsiyamizning 6 bobi „Fuqarolik“ deb nomlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasida yagona fuqaroli o‘rnatilishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi va bundan tashqari qonunda fuqarolikka ega bo‘lish, fuqarolikning yo‘qolishi asoslari va tartibi alohida belgilangan. Shuningdek, har bir fuqaro shaxsiy erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadirlar. Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini oshirib, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan tartibda: mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlarni amalga oshirish huquqiga egadirlar.

O‘zbekiston Respublikasining „Fuqarolik to‘g‘risida“gi qonun 1992-yil 28-iyuldan boshlab kuchga kirgan. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 2 qisimdan iborat, uning 1-qismi 1995-yil 21-dekabrda, 2-qismi 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan. Faqat ikkala qizmi ham bir vaqtda ya’ni, 1997-yil 1-martda kuchga kirgan. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 6 bo‘lim, 71 bob va 1199 ta moddadan iborat. Fuqarolik Kodeksining 1-qismida fuqarolik huquqining umumiy qoidalari, tamoyillari, fuqarolik huquqiy munosabatlari sub’yektlari, mazmuni va

obyektlari, vakillik va ishonchnoma, muddatlar va da'va muddatlari, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, majburiyat huquqining umumiy qoidalari, shartnomalar to'g'risidagi umumiy qoidalar belgilangan; 2-qismida bo'lsa, majburiyatlarning alohida turlari hisoblangan fuqarolik huquqiy shartnomalarni, shartnomalardan tashqari majburiyatlarni, intellektual mulk huquqi obyektlari bilan bog'liq munosabatlarni, vorislik huquqini va xalqaro xususiy huquq normalarini fuqarolik huquqiy munosabatlarga tatbiq etilishini tartibga soluvchi qoidalar mustahkamlangan. Fuqarolik kodeksi-fuqarolik huquqlarining eng muhim va asosiy qoidalarini belgilaydigan kodifikatsiyalashtirilgan normalardan iborat qonun hujjati hisoblanadi. Sodda qilib aytganda, fuqarolik-jismoniy shaxsning ma'lum bir davlat bilan huquqiy bog'lanishidir.

Fuqarolik huquqlari va burchlari, asosan, Fuqarolik Kodeksi bilan belgilab qo'yilgan. Fuqarolik huquqlari- har bir fuqaro, shuningdek, yuridik shaxslar o'z huquqlari bilan teng bo'lib, mulk huquqi, shartnoma tuzish, shaxsiy huquqlarni amalga oshirish, so'z erkinligi va shu kabi huquqlarga egadirlar. Fuqarolik burchlari-fuqarolar o'z huquqlarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning huquqlariga va manfaatlariga hurmat ko'rsatishlari kerak bo'ladi. Shuningdek, qonunlarga rioya qilish, soliqlarni to'lash va boshqa majburiyatlarni bajarish burchlari mavjud.

Fuqarolik huquqlari quyidagi yo'llar bilan himoya qilinadi: 1) Sud tizimi- agar fuqaro o'z huquqlarini amalga oshirishda to'siqlarga duch kelsa, sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lish bilan bir qatorda u fuqarolik huquqlarini tiklash uchun ma'suldir; 2) Davlat organlari-Adliya, soliq va boshqa nazorat organlari fuqarolar huquqlarining buzilishi holatlarida faoliyat olib boradi. 3) Huquqni muhofaza qilish organlari-Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmat va boshqalar ishtirok qiladi.

Fuqarolik huquqi manbalari tizimi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonon hujjatlari;
3. O'zbekiston Respublikasi qonun osti hujjatlar;
4. Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari, O'zbekiston Respublikasida ishtirok etgan shartnomalar hamda bitimlar;
5. Ish muomalasi odatlari, mahalliy odatlar va an'analar;
6. Yuridik shaxslarning lokal hujjatlari.

Fuqarolik qonun hujjatlari ortga qaytish kuchiga ega emas. Faqatgina, Ma'muriy huquq va Jinoiy huquqlar ortga qaytishi mumkin.

Fuqarolik huquqiy munosabati ushbu munosabatda ishtirok etuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va majburiyatlarini subyektiv huquq, burch va mazmunini tashkil etadi. Yurtimizda fuqarolarga va boshqa subyektlarga tegishli subyektiv huquqlar davlat tomonidan kafolatlangan. Fuqarolik huquqining obyekt-huquq subyektlarining harakatlari qaratilgan moddiy va nomoddiy ne'matlardir. Ba'zi holatlarda fuqarolik

huquqi obyektlarining muomalada bo'lishi cheklanishi mumkin. Va aksincha, bozor munosabatlari sharoitida fuqarolik huquqi obyektlari doirasi kengayadi.

“O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida“gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2010-yil 18-fevralda qabul qilingan bo‘lib, Senat tomonidan 2020-yil 28-fevralda ma‘qullangan. Ushbu qonunning maqsadi- O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olish va tugatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mening fikrimcha, fuqarolik munosabatlarini tartibga solish orqali mamlakat taraqqiyoti sari qo‘ygan yana bir katta qadam bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 5-apreldagi „ O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Farmoyishi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotimizda muhim hodisa bo‘ldi deb aytishimiz mumkin. Farmoyishga binoan, 2020-yil 1-aprelga qadar yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirishga doir normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.

H.R.Rahmonqulov fuqarolik huquqi tamoyillari haqida o‘z fikrlarini bildirar ekan, huquqning alohida sohasi sifatida xususiy huquq tarkibida bo‘lgan. „ Fuqarolik huquq tamoyillari uning predmetini tashkil qiluvchi ko qirrali milliy mulk bilan bog‘liq va mulk bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy va tashkiliy huquqiy munosabatlarning xususiyatlari bilan ifoda qilinadi “ deya ta’kidlaydi.

**Xulosa:** Xullas, Fuqarolik huquqi bu-har qanday rivojlangan huquq tizimining en muhim tarkibiy qismidir.Ayniqsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin fuqarolik qonunlari tubdan qayta qurish, bozor tizimi, rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yangilanish vazifasini qo‘yadi. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqlarining himoya qilinishi va tartibga solinishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni, fuqarolarning erkinligini va davlatning huquqiy asoslarini ta‘minlab kelayotganligi muhum ahamiyatga ega deb o‘ylayman.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi;
- 3.<http://uz.wikipedia.org>;
- 4.<https://lex.uz>;